BACHADON VA QÕSHIMCHALAR YALIG‘LANISHIDA ANTIBAKTERIAL TERAPIYANING SAMARADORLIGI

Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot insitituti

Davolash ishi yo’nalishi Abdunomonova Zarnigor

Ilmiy rahbarlar: Ismonaliyeva Diyora

Tel:+998905310771

Karimullo0131@gmail.com

Annotatsiya

Bachadon-Uterus toq a’zo hisoblanib, ayollar jinsiy sistemasiga kiradi. Qorinning pastki qismida, kichik chanoqda joylashgan, homila rivojlanishida muhim ahamiyarga ega. Uzunligi 7-8 sm, og’irligi 30-100g, kengligi 4-5,5sm. Yuzasi fasis anterior, fasis posterior. Qirralari margo dextra ,margo sinstra. Qismlari: pars fundus-bachadon tubi, pars corpus- bachadon tanasi, pars cervix-bo’yni. Mikraskopik tuzilishi: tunica serosa-perimetrium, tunica muscularis-miometrium, tunica mucosa-epimetrium. Maskur maqolada bachadon yallig’lanishida antibacterial terapiyaning samaradorligi to’g’irisida. Kasallikni erta aniqlash va oldini olish chora tadbirlari to’g’irisida yoritib beriladi.

Аннотация

Матка (uterus) является непарным органом и относится к женской репродуктивной системе. Она расположена в нижней части живота, в малом тазу, и играет важную роль в развитии плода. Ее длина составляет 7–8 см, масса — 30–100 г, ширина — 4–5,5 см. Поверхности: передняя (facies anterior) и задняя (facies posterior). Края: правый (margo dexter) и левый (margo sinister). Части: дно матки (pars fundus), тело матки (pars corpus), шейка матки (pars cervix).

Микроскопическое строение: серозная оболочка (tunica serosa — периметрий), мышечная оболочка (tunica muscularis — миометрий), слизистая оболочка (tunica mucosa — эндометрий).

В данной статье рассматривается эффективность антибактериальной терапии при воспалительных заболеваниях матки. Также освещаются вопросы ранней диагностики заболевания и меры его профилактики.

Abstract

The uterus is an unpaired organ that belongs to the female reproductive system. It is located in the lower part of the abdomen, within the small pelvis, and plays an important role in fetal development. Its length is 7–8 cm, weight ranges from 30 to 100 g, and width is 4–5.5 cm. Its surfaces include the anterior (facies anterior) and posterior (facies posterior). Its borders are the right (margo dexter) and left (margo sinister). Its parts include the fundus (pars fundus), the body (pars corpus), and the cervix (pars cervix).

The microscopic structure consists of the serous layer (tunica serosa — perimetrium), muscular layer (tunica muscularis — myometrium), and mucous layer (tunica mucosa — endometrium).

This article discusses the effectiveness of antibacterial therapy in uterine inflammatory diseases. It also highlights the importance of early diagnosis and preventive measures.

Kalit sozlar

Bachadon, ovulyatsiya, urug’lanish, homiladorlik, hayz, endometrit, mioma ,polip, bachadon saratoni, UZI, ginikologik ko’rik, gormonlar

Kirish

Homiladorlik ayol organizmidagi mahsus holatdir.Homiladorlik bachadon nayida ayol va erkak jinsiy hujayralarining qo’shilishi natijasida hosil bo’ladigan zigota

hisoblanadi ’Urug’lanishdan tortib to tug’ilgangacha bo’lgan davrdir. Homladorlikning o’rtacha davomiyligi 40 hafta {akusherlik muddati}. Bachadon noksimon a’zo hisoblanadi. Hayz va bachadon ham o’zaro bog’liq .Hayz bu- bachadon ichki qavatining {endometriyning} har oy yangilanib, ortiqcha qismi qon bilan ajiralib chiqish jarayonidir. Hayz sikli oy ko’rish yoki menstruatsiya- balog’atga yetgan qiz bolalarda va bola tug’ish yoshidagi ayollarda har 26-29 kunda sodir bo’ladigan biologik jarayon. Hayz siklida asosan tuxumdon va bachadonda o’zgarish yuz berib bachadondan ma’lum miqdorda qon ketadi. Qiz bolaning birinchi hayz ko’rishiunda ikkilamchi jinsiy belgilar ro’y beradi. Birinchi hayz ko’rish muddati qiz bolaning sog’ligi va turmush tarziga , turar joyi va turmush tarziga bog’liq .Qiz Bolani organizmi hayz ko’rguncha asta-sekin tayyorlanib boradi. Shuning uchun qiz Bolani hayz ko’rishiga oldindan tayyorlab borish zarur. Bundan tashqari bachadon kasalliklari ham bugungi kunda dolzarb muomolardan biri bo’lib kelmoqda. Bu ayollarda uchraydigan muomolardan biri bo’lib, ular reproduktiv salomatlikka katta ta’sir qiladi . Bachadon shilliq qavati- endometriyning yallig’lanishi- endometrit, Bu kasallik ko’pincha infeksiyalar {streptakokk ichak tayoqchasi} natijasida tug’ruq yoki abortan keyin rivojlanadi. Kilinik belgilari qorin pastki qismida og’riq, tana haroratining ko’tarilishi va yiringli ajiralmalar, holsizlik bosh og’rishi, darmonsizlik , ishtahani pasayishi kabilar yuzaga keladi. Buning asosiy sababi esa bachadon shilliq qavatiga infeksiya tushishi natijasida yuzaga keladi. Bu kasallik viruslar, bakteryalar, zamburug’lar yoki parazitlar tufayli kelib chiqishi mumkin. Spetsifik shakllari infeksiyalar, {xlamidyalar, gerpes virusi} bacterial vaginoz kabi omillar bilan bog’liq. endometrit vaqtida davolanmasa surunkaliga o’tib ketadi. Surunkali endometrit- ko’pincha reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydi va bepushtlik va homladorlik kabi asoratlarga olib keladi. Bachodon ichi spirallari bo’lgan

ayollarda kasallik og'ir kichadi. Seroz yiring va qon aralash ajiralmalar, bachadonda og'riq yuzaga keladi. Endometriyani tashxislashda quydagilardan foydalaniladi.

Umumiy qon tekshiruvi.
Endometriyal asperatsion biopsiya

Tos a'zolarini UZI qilish
Ginikalogik diagnostika
InfeksiyalarniPSR diagnostikasi.
Ayollarda endomatritni davolash.
Antibakterial terapiya muhim tekshiruvlardan biri. Antibakterial terapiya: antibiotiklar qo'zg'atuvchinig sezgirligini hisobga olgan holda tanlanadi. Aralash florada bir nechta preparatlar birlashtirilgan. Metronidazol anaerob infeksiyalarning oldini olish uchun ishlatiladi. Ta'sir doirasi keng antibiotiklar {Doksitsiklin, Sparfloksatsin qo'llaniladi. Endometriyni tiklash uchun preparatlar {Divigel, Utrojestan} vitaminlar va umumiy quvvqtlantiruvchi vositalar. Qon ketishni to'xtatish uchun garmonlar va amina kapron kislata buyiriladi. Fizoterapiya usullari {elektrofarez, magnitoterapiya Utt} qo'llaniladi. Homladorlik vaqtida endometritni davolashda homila uchun xavfsiz bo'lgan antibiotiklardan foydalanish kerak. Bachadon va qo'shimchalari yallig'lanishi {pelvicinflamatory disease } reproduktiv yoshdagi ayollarda eng muhim infeksion kasalliklardan biri, antibacterial terapiya uning asosiy va hal qiluvchi davolash usuli.
Antibiotik terapiya maqsadi
PID- pastki jinsiy yo'llardan yuqoriga ko'tariluvchi infeksiya natijasida yuzaga keladi. natijada quydagi qismlar zaralanadi.
Endometriy

Bachadon naylari

Tuxumdonlar{ooforit}

Atrofdagi to’qimalar zararlanadi.

Terapiyaning asosiy maqsadi: infeksiyani yo’qotib, yallig’lanishni kamaytirib, turli asoratlarni oldini olish. PIDni ko’pincha davolash 10-15 kun davom etib ijobiy natija beradi. Agar davolash erta bosqichda boshlansa, infeksiya to’liq bartaraf etiladi va reproduktiv funksiyalar saqlanib qolinadi. Ayol holati esa 48-72 soat Ichida yaxshilana boshlaydi: tana harorati pasayib , og’riq asta sekin pasayib boradi, yallig’lanish belgilari ham kamayish holatlari yuz beradi. Davolash kechiktirilsa yoki noto’g’ri olb borilsa, kasallik surunkali shaklga otish holatlari yuzaga keladi, natijada ayol holati yanada og’irlasha boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, antibiotiklarga chidamlilik, imunitetning pasayishi, yiringli o’choqlarning mavjudligi davolash samarasini yanada pasaytirib yuboradi. Bundan tashqari bachadon qo’shimchalarining, tuxumdonlar, bachadon naylarining yalliglanishi ham kuzatiladi.Bu esa adneksit, salpingooforit deb ataaladi. yallig’lanish bir tomonlama yoki ikki tomonlama bolishi tafovut qilinadi. Bu kasallik eng keng tarqalgan kasaliklardan biri vaqtida davolanmasa ayol salomatligi uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Adneksit odatda qindan yoki bachadon bo’ynidan bachadon qo’shimchalariga tarqaladigan infeksiya tufali yuzaga keladi. Asosiy qo’zg’atuvchilar: Bakteryalar Xlamidya, Gonokkoklar, mikroplazmalar va boshqalar. Viruslar: Gerpes sitomegalovirus. Zamburug’lar va parazitlar: Kandidda va boshqalar kiradi. Haddan tashqari sovuq yallig’lanish jarayoni yanada rivojlanishiga sabab bo’ladi. Bundan tashqari shaxsiy gigiyenaning buzilishi , jinsiy yo’l bilan yuqadigan infeksiyalar STI bunga abortlar, qirib tozalash yoki bachadon ichidagi aralashuvlar infeksiya rivojlanishiga sabab bo’ladi. Doimiy stress, hissiy va jismoniy zo’riqish ham infeksiyaga qarshi

kurashish qobilyatini pasaytiradi. Natijada zaif imunitet tizmi yuzaga keladi. Agar imunitet tizmi tez ko'payayotgan bakteryalar bilan kurasha olmasa infeksiya bachadon bo'ynidan bachadonga va fillopiy naylari orqalituxumdonlarga kirishi mumkin. Adneksitning asosiy belgilaridan biri qorin sohasidagi kuchli og'riq hisoblanadi. Istma esa ko'pincha titroq bilan keladi. Bunday holatlarda ham Antibakterial davolash: infeksiya qo'zg'atuvchilarga qarshi keng spektrli antibiotiklarni buyurish tavsiya etiladi.

Xulosa: Bachadon va qo'shimchalari yallig'lanishida antibacterial terapiyaning samaradorligi juda katta ahamiyatga ega . Antibakterial terapiya bachadon va qo'shimchalar yallig'lanishidajuda samarali lekin erta va to'g'ri qo'llanilganda. Bu esa ayol salomatligini saqlash va reproduktiv funksiyani himoya qilishda katta ahamiyatga ega. Agar kechiktirilsa bu samarali natijani bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

A. Ahmedov, O' Mirsharopov, T. Sagatov, H Rasulov:Anatomiya

Q .R. To'xtayev, F. X. Azizova, M Abduraxmonova, E. A . Tursunov, M.X. Raxmatova: gistalogiya , sitalogiya, embrialogiya

Williams Gnycology -ginikalogik kasalliklar

Berek & Novak"s Ginicology-zamonaviy klinik yondashuvlar.

Novak's Gynicology: infeksion kasalliklar va davolash usullari

World Health Organization- reproduktiv salomatlik

Centers for Disease Control and Prevention- PID davolash bo'yicha global tavsiyalar

American Collage of Obstetricianis and Gynecologists- amaliy ginikologik protokolllar

Katzung Basic and Clinical Pharmacology- antibacterial dori vositalari

Goodman & Gilmans The Pharmacological Basic of Therapeuticis- antibiotiklar mexanizmi.